

PAPER

AGENS VALENTLIGIGA EGA BO‘LMAGAN SO‘ZLARDA SHAXS VALENTLIGINING VOQELANISH XUSUSIYATLARI

Shokirova Xavasxon Nurmamatovna^{1,*} and Abdusalomova Madinaxon Toxirjon qizi ²

¹Namangan davlat pedagogika instituti v.b.professori, filologiya fanlari doktori

²Namangan davlat pedagogika instituti Uzb AU 23–guruh talabasi

* shokirova01.72@gmail.com

Abstract

Maqolada agens valentligining nutqiy voqelanishida agensning egaga teng kelishi va aksincha, egaga teng kelmaslik kabi ikki holatning mavjudligi sababli, yani agens bilan ega mos kelgan o‘rinlarda $[A=E\neq R]$ voqelanishi mumkinligi, agens, ega va shaxs bir-biriga mos bo‘lgan holatda shaxsning egaga munosabati qanday bo‘lishidan qati nazar, agensning egaga mos kelmagan va eganing shaxs-songa teng bo‘lgan holati voqelanishi, kesimlik kategoriyasi shakllar tizimidan iborat bo‘lganligi sababli uning tarkibidagi to‘rt kategoriya alohida valentlik hosil qilishi haqida so‘z boradi.

Key words: kesimlik, kategoriya, nutqiy voqelanishi, agens, ega, shaxs, fel, agens valentligi, valentlik, shaxs aktanti, shaxs-son, subekt, turkiy tillar, grammatik sintaktik kategoriya, leksik-semantik qobiliyat, funksional-sintaktik kategoriya, semantik valentlik, grammatik shakllar, morfologik shakllar, mantiqiy subekt.

Kirish

Mantiqiy hukmning zaruriy va mutlaq tarkibiy qismi bo‘lgan subekt tilimizda kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lgan shaxs-son manosi va aktantiga muvofiqdir. Mantiqiy subektga mohiyat jihatdan Hind-Evropa tillarida ega, turkiy tillarda kesim tarkibidagi shaxs-son formantining manosi mos keladi.

Ot, sifat, son, olmosh, ravishlarning agens valentligi ajratilmaydi. Buni quyidagicha asoslash mumkin: shirin qovun so‘z birikmasida «qovun» «shirin»ning subekti sanalmaydi. «Shirin» «qovun»ning belgisi bo‘lib, bu birikmada predmet va belgi munosabatlari yuzaga chiqqan. Bu falsafiy substansiya va aksidensiya munosabatlariga to‘g‘ri kelsa-da, mazkur birikuvda «Gul qizardi» misolidagi kabi subekt-predikat munosabatlari mavjud. emas. Gul qizil(dir) gapida mantiqiy predikat munosabatlari mavjud, ammo na «gul» leksemasida na «qizil» leksemasida hozirga qadar agens valentligi ajratilmagan. Demak, bunday so‘zlarda agens valentligi yo‘q. Ushbu so‘zlar

kesim mavqaida voqelanganda shaxs-son aktantiga ega bo‘ladi, chunonchi: «Talabaman». «Talaba» so‘zining agens valentligi yo‘q, lekin «talabaman» kesimlik shakli bemalol «men» bilan birikadi va «Men talabaman» ikki tarkibli (egali) gapni hosil qiladi. Bunday gaplarda ham shaxs egaga barobar munosabati, yani shaxs-son aktanti bilan eganing mos kelish holati o‘z mutlaqligini saqlaydi. Malumki, agens valentligiga ega bo‘lmagan so‘zlar bilan ifodalangan kesim o‘zbek tilshunosligida ot-kesim deb ataladi. Shunday ekan, ot-kesimlarning agens semantik valentligi yo‘q, lekin kesim shakli sifatida shaxs-son valentligiga ega bo‘la oladi va shaxsning egaga mosligi munosabatining mutlaqligi to‘la saqlanadi. Bunday holatda eganing kesim mavqaida turgan so‘z bilan qanday munosabatda ekanligi ega va kesim mavqaida kelgan so‘zlarning o‘zaro manoviy munosabatlari asosida aniqlanadi. Bu munosabat shaxs aktantining voqelanishiga bevosita aloqador bo‘lmasa-da, ayrimlarini sanab o‘tish mumkin.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida eganing ifodalanishi va mano xususiyatlari sharhlanar ekan, ega bilan kesim mavqaida kelgan so‘zlar orasida rang-barang munosabatlarning bir qancha turi

sanab o'tilgan. Chunonchi: «Gul qizildir» gapida ega predmetni, kesim belgini ifodalaydi. Masalan: 1. Karim – o'qituvchi. 2. Otalar so'zi – aqlning ko'zi. 3. Ginali do'st – adovatli dushman. 4. Vadaga vafo – mardning ishi. 5. Men ham kichik paxtakor. 6. Atrof – ko'm-ko'k. 7. Yurishi – ildam.

Berilgan gaplarda, yani birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi gaplarda ega ham, kesim ham ot so'z turkumidan iborat; beshinchi gapda ega olmosh bilan, kesim ot bilan ifodalanagan; oltinchi gapda ega joy manosini (otni), kesim belgini; oxirgi gapimizda esa ega harakatni, kesim belgini (ravishni) ifodalaydi.

Natijalar

Agens valentligiga ega va agens valentligiga ega bo'lmagan so'zlarning kesim va boshqa gap bo'laklari mavqeida kelganda, agensning shaxs aktantiga munosabatini ikki tarkibli (egali) gaplar tarkibida kuzatib, quyidagi xulosalarga kela olamiz:

1. Agens semantik valentligi va shaxs aktanti tom manoda mustaqil hodisalar bo'lib, birinchisi leksik-semantik qobiliyatning (semantik valentlikning) sintaktik voqelanishi bo'lsa, ikkinchisi shaxs grammatik sintaktik kategoriyaning nutqiy voqelanishidir.


2. Shaxs aktantining egaga mos kelish holati – $[R=E]$ tilimizda mutlaq qonuniyatdir; shaxs-son aktanti, yani $[R]$ nutqda eksplisit (moddiy ifodalanish shaklida) voqelansa, faqat ega mavqeida yuzaga chiqishi mumkin. Demak, shaxs aktantining $[W]$ – nominativ birlik bilan umuman aloqasi yo'q. Shunday ekan, uning voqelanishlari to'la-to'kis gapning lisoniy qurilishi bilan bog'liq, deb xulosalay olamiz.

3. Agens valentligining nutqiy voqelanishida agensning egaga teng kelishi va aksincha, egaga teng kelmaslik kabi ikki holatning mavjudligi sababli $[A=E]$, yani agens bilan ega mos kelgan o'rinlarda $[A=E \neq R]$ voqelanishi mumkin.

Muhokama

Yuqorida aytilganiday, shubhasiz, mazkur voqelanish tasodifiylikdir. Negaki, agens, ega va shaxs bir-biriga mos bo'lgan holatda shaxsning egaga munosabati qanday bo'lishidan qati nazar, agensning egaga mos kelmagan va eganing shaxs-songa teng bo'lgan holati saqlanaveradi. Bundan kelib chiqadiki, agensning shaxsga bevosita aloqasi yo'q, bularning har biri mustaqil hodisalaridir. Mantiqiy subektning grammatik tizimda shaxs-sonda voqelanishi ushbu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

Zeroki, agens semantik valentlik sifatida, so'zning immanent (tabiatan ajralmas) xususiyati bo'lib, hukm bilan bog'liq emas. Mantiqiy subekt esa hamisha hukm bilan aloqador. Gap markazi tarkibidagi shaxs-son aktanti ham $[W]$ nominativ birliklar bilan emas, balki sintaktik mavqe – kesim – mantiqiy predikat bilan aloqador. Tilimizda kesimlik shakllari shaxs-son aktantida shaxs manosi ustuvor bo'lib, son manosi undan kuchsizroqdir. Shaxslar ichida ham shaxs manolari qatilyligiga ko'ra quyidagi darajalanish kuzatiladi:



Agens shaxs-songa mos bo'lganda, shaxs-son ham egaga mos bo'lgan holati kuzatiladi, demak, bu holatda agens, ega va shaxs-son bir-biriga teng, yani $[A=E=R]$ bo'ladi. Ushbu holat faqatgina harakatning bajaruvchisi bilan ega mos kelganda to'g'ri bo'ladi, shu fel boshqa nisbat shaklida kelganda agens egaga teng kelmagan holatida bo'ladi. Aytish joizki, bunda agens shaxs-son

bilan teng emas.

Xulosa

Demak, mantiqiy subekt grammatik tizimda shaxs-son shaklida voqelanadi. Agens – semantik valentlik bo'lib, so'zning immanent xususiyati hisoblanganligi sababli hukm bilan bog'liq emas. Mantiqiy subekt esa hamisha hukm bilan aloqador.

Gap markazi tarkibidagi shaxs ham kesim mavqeida turgan $[W]$ – atov birliklari bilan emas, sintaktik mavqe – kesim bilan aloqadordir.

Shaxssiz gap tarkibida kesim ikki tarkibli (egali) gap kesimidan qisman farq qiladi. Negaki, egali (ikki tarkibli) gaplarda kesimlik kategoriya tasdiq-inkor, mayl, zamon va shaxs-son majmuasidan tashkil topar ekan, bunda shaxs-son egaga teng holati kuzatiladi, shaxssiz gaplarda esa shaxs-son yo'q, shu sababdan $[P=O]$ munosabati voqelanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov T. Birikmali ot-kesimlar // O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi masalalari. Namangan ped. institutining asarlari. – Namangan, 1967. – B. 26.
2. Akramov T. Ot kesimlarining o'rganilish tarixidan – «Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar». – Toshkent, 1965. – 132 b. Gegel G.V. Nauka logiki. – M.: Misl, 1972. – S. 9–31. Tom 3. 1973. Tom 2. – S.31.
3. Meshaninov I.I. Glagol. – L.: Nauka, 1982. – 272 s. Panfilov V.V. Grammatika i logika. – M.: Izd-vo AN, 1963. – S. 79. Potebnya A.A. Iz zapisok po russkoy grammatike. – M.: Prosveshenie, 1985. – 287 s.
4. Xayrulaev M., Haqberdiev M. Mantiq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 146 b. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1987. – B. 87;
5. Shokirova X. O'zbek tilida kesimlik kategoriya va shaxs aktanti. O'quv qo'llanma. – T: Yangi asr avlodi, 2012. – 128 b. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). – Farg'ona.: Classic, 2022. – 176 b.
6. Shokirova Kh. The object of pragmatics – the basic of progmatcal approach. TJSS Thematics journal of Social Sciences.Vol-7-Issue-5 2021. – P.41-47. SJIF-7.20 № 23.
7. Shokirova Kh. Personal dexterity options. Academicia. An international Multidisciplinary Research Journal.Vol.11, Issue 5 may 2021. – P:789-797. SJIF 7.492 № 23.
8. Shokirova H. Hidden pragmalinguistics – pragmatic potential. International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 105 January 30, 2022. – P.268-272. SJIF-8.997 № 23.
9. Shokirova H. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. – Farg'ona: Classik, 2023. – 268 b.
10. Shokirova H. Savodxonlik asoslari. – Farg'ona: Super Poligraf Servis, 2024. – 168 b.
11. Shokirova H. Semiotik model konsepsiyasi. “Ilmiy xabarlar” jurnali. Qo'qon davlat pedagogika institute. – 2024, dekabr. Respublika OAK jurnali.